

**XORIJIY INVESTITSIYALARNI FERMERLAR QO'SHIMCHA SOHA
BILAN SHUG'ULLANISHLARI UCHUN JALB QILISH SHART
SHAROITLARI**

“TIQXMMI” MTU tayanch doktoranti

Salomova Zarina Murodovna

Annotatsiya: Mazkur maqola xorijiy investitsiyalarni fermerlar qo'shimcha soha bilan shug'ullanishlari uchun jalb qilish shart sharoitlari mavzusini yoritishga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada Qishloq xo'jaligining samarali rivojlanishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy kategoriyalar, diversifikatsiyalash, xorij texnologiyasi, kapital qo'yilmalar, ekspluatatsiya, amortizatsiya siyosati, moliyaviy resurslar.*

**CONDITIONS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS FOR
FARMERS TO ENGAGE IN ADDITIONAL ACTIVITIES**

Researcher PhD student of the MTU “TIQMMI”

Salomova Zarina Murodovna

Annotation: This article is devoted to the topic of conditions for attracting foreign investments for farmers to engage in additional activities. The article also provides information on the importance of foreign investments in the effective development of agriculture and ways to attract foreign investments.

Keywords: economic categories, diversification, foreign technology, capital investments, exploitation, depreciation policy, financial resources.

**УСЛОВИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ ДЛЯ
ЗАНЯТИЯ ФЕРМЕРОВ В ДОПОЛНИТЕЛЬНОЙ СЕКТОРЕ**

Докторант МТУ «ТИОХММИ».

Саломова Зарина Муродовна

Аннотация: Данная статья посвящена освещению условий, необходимых для привлечения иностранных инвестиций для работы фермеров на дополнительных полях. Также в статье представлена информация о значении

иностранных инвестиций для эффективного развития сельского хозяйства и путей привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: экономические категории, диверсификация, зарубежные технологии, капитальные вложения, эксплуатация, амортизационная политика, финансовые ресурсы.

Qishloq xo‘jaligining samarali va barqaror rivojlanishining zarur sharti ularni yetarlicha investitsiyalashdir. Agrar siyosatning muhim vazifasi qishloq xo‘jaliklarini investitsiyalash darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Investitsiya – daromad (foйда) olish maqsadida pul mablag‘lari (kapital)ni iqtisodiyot tarmoqlariga uzoq muddatga qo‘yishdir. Ular o‘zlarida asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish rekonstruksiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlashni, shuningdek bular bilan bog‘liq aylanma fondlar o‘zgarishini aks ettiradi. Bundan tashqari, investitsiyalar – bu qimmatli qog‘ozlarga patentli intellektual huquqlarga ega bo‘lish va boshqalar. Investitsiyalar daromad (foйда) shakllantiruvchi yoki ma‘lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati ob‘ektlariga qo‘yiladi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriyalar uchun quyidagi xarakterli tuzilishlarga ega: u qishloq xo‘jaligida va tarmoqlarning iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi; resurslarni sarflash va samara olishni ko‘zda tutadi; investitsiya qo‘yilmalaridan kelishi mumkin bo‘lgan samara ehtimoli, tavakkalchilik xarakteriga ega; resurslarni sarflash va samara olish orasida ma‘lum (qoidaga ko‘ra, uzoq muddatli) vaqtinchalik (o‘lchov birligi) mavjud bo‘ladi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ilg‘or xorij texnologiyasi va boshqaruv tajribasini jalb etish kabi strategik va joriy vazifalarni hal qilishda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirishga yo‘naltirilgan faol siyosat olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 31 mart kuni Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmonni

imzoladi va bu farmonda O'zbekistonda yagona davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mas'ul vakolatli davlat organi hisoblangan Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tashkil qilinishi belgilab qo'yildi.[1] Respublikamizda jami xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 50.7%i tog'-kon sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning turli sohalari(qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, aholiga maishiy xizmatlar va boshqalar) bo'yicha samarali taqsimlash va uni diversifikatsiyalash vazifasini qo'yadi. Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga mo'ljallangan ob'ektlar qurilishi;
- texnika (qishloq xo'jaligi mashinalari, traktorlari) uskunalari va transport vositalarini sotib olish;
- ko'p yillik ko'chatlar ekish, ularni ekspluatatsiya yoshigacha (hosilga kirguncha) o'stirish;
- mahsuldor va ishchi chorva hayvonlarining asosiy podasini shakllantirish;
- yerni yaxshilash (inshootlarsiz).

Davlat investitsion siyosatining asosiy tamoyillari zamonaviy bosqichda mavjud foiz stavkalarining pasayishi iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarning mos keluvchi samaradorligi darajasigacha pasayishi kerak: mavjud soliq tizimini soddalashtirishdek, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish; tashqi va ichki investorlarning bevosita investitsiyalarini rag'batlantirish maqsadida investitsion risklarni pasaytirish uchun tashkiliy huquqiy nuqtai nazarlarni shakllantirish; byudjet investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishdan foydalanish samaradorligini oshirish. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan kapital qo'yilmalari manbalari va usullari ham o'zgaradi. Hozirgi zamon bosqichida investitsiyalar qo'yidagicha moliyalashtiriladi:

- xususiy moliyaviy resurslar va investorlarning xo'jalik ichidagi rezervlari (daromad va amortizatsiya ajratmalari; fuqarolar va yuridik shaxslarning

jamg'armalari va omonatlari, sug'urta idoralari tomonidan tabiiy ofatlar, avariya va boshqalardagi yo'qotishlarni qoplash ko'rinishidagi to'lov mablag'lari va boshqa);

- investorlarning qarz ko'rinishidagi moliyaviy mablag'lari (bank va byudjet kreditlari, obligatsiya zayomlari);
 - jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (mehnat jamoalari a'zolari fuqarolar, yuridik shaxslarning aktsiya sotishdan olgan mablag'lari, pay va boshqa to'lovlari;
 - davlat, mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topishi.
- Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligiga kapital qo'yishning asosiy manbasi – xususiy mablag': daromad va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi[2]. Qoidaga ko'ra, amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning takror ishlab chiqarishini, sodda daromad esa kengaytirilgan holda ta'minlaydi. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish orqali quyidagilarga erishiladi:

- Takror ishlab chiqarishni kengaytirilgan siyosatini omalga oshirish;
- Ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, milliy mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta'minlash, uning sifati va hajmini oshirish;
- Ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan qayta qurish va iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;
- Hududlarni iqtisodiy salohiyatini oshirish;
- Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;
- Ishsizlik muammosini yumshatish va ma'lum darajada hal etish;
- Zamon darajasida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mahsulot tannarxini pasaytirish;
- Davlat budjeti daromadlarining oshishi;
- Milliy va jahon iqtisodiyoti ravnaqi va jamiyat farovonligini oshirish.

Bundan tashqari xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish quyidagi makroiqtisodiy barqarorlashuvga olib keladi[3]. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududlarning mavjud investitsion muhitini ko'rsatuvchi xalqaro yarmarkalar o'tkazish yuqori samara

beradi. Mamlakatda qulay investitsion muhit yaratilgan bo'lsa-yu, lekin bu muhit haqida xorijiy investorlar hech qanday axborotga ega bo'lmasa, bundan hech qanday samaraga erishib bo'lmaydi. Xorijiy investitsiyalar uchun qulay investitsion muhitni yaratish va bu muhit haqida kerakli axborotlar bilan ta'minlash mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshiradi. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli ravishda valyuta va milliy lashtirish kabi qo'shimcha tavakkalchilikka to'qnashishi ehtimoliga ega bo'ladi. Shuning uchun ular bu risklar kafolatlangan va qulay investitsion muhit yaratilgan iqtisodiyotga o'z kapitallarini yo'naltiradi[4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bizning fikrimizcha, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va qulay investitsion muhitni tashkil qilish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Bozor infratuzilmasini rivojlantirish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
- Xorijiy mulkdor huquqlarini kafolatlovchi huquqiy himoyasini kuchaytirish;
- Joylardagi erkin iqtisodiy hududlar va sanoat zonalarini mavjud infratuzilmasini rivojlantirish;
- Xorijiy investorlarga ma'lum belgilangan tarmoqlarga kiritilgan investitsiyalari uchun imtiyozli muddati tugagach qisman imtiyozlar berish tartibini joriy etish;
- Mamlakatda milliy valyuta tizimini mustahkamlash va uni erkinlashtirish;
- Tashqi aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- Xalqaro investitsion shartnomalarni samaradorligini oshirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi"(2017 yil yanvar, dekabr). O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. T.: -2018.
2. O'roqov U. Y., Moyliyev M. B., Muzaffarov M. M. O. G. L. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 1280-1291

3. Yusupjonovich D. T. Effective use of investment in agriculture of the republic of Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – Т. 8. – №. 7. – С. 6-10.
4. <http://www.gazeta.uz/investitsiya>